


Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi

2018-YIL QURILISH PUDRAT ISHLARI YANVAR-IYUL OYLARIDA



Joriy yilning yanvar – iyul oyida viloyat bo'yicha 1 834,5 mlrd. so'mlik qurilish pudrat ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,5 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 304,6 mlrd.so'mni yoki jami qurilish ishlari xajmining 16,6 % foizni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 87,6 % ni tashkil qildi. Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari xajmining 51,6 %i yoki 945,9 mlrd. so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,2 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 31,8 % ni yoki 584,0 mlrd.so'm to'g'ri keldi, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,9 % ni tashkil etdi. Ko'pgina tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, Dehqonobod tumanida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 59,2 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 98,9 foizni, mos ravishda, Muborak tumanida – 85,7 mlrd.so'mni yoki 72,7 foizni, Kasbi tumanida – 70,9 mlrd.so'm yoki 93,5 foizni, G'uzor tumanida – 66,6 mlrd.so'm yoki 74,4 foizni tashkil etdi.


Raqamlar:

Qurilish-montaj ishlari hajmi – 1 834,5 mlrd.so'm

Yirik qurish-pudrat tashkilotlari ulushi – 16,6 %

Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi – 51,6 %

Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – 31,8 %



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 79,6 %ni tashkil etdi.

Fuqorolik obyektlari qurilishi hajmi jami qurilish ishlari hajmida 7,2 %ni, hamda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda 13,2 %ni tashkil qildi.

	JAMI (mlrd.so'm)	Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha			Jami qurilish xajmidan
		Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari	Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnikaviy qayta qurollantirish
Viloyat bo'yicha jami:	1834,5	1459,5	133,0	242,0	1325,1
Nodavlat :	1791,8	1459,5	103,0	229,3	1309,3
Davlat:	42,7	-	30,0	12,7	15,8

**Viloyat
bo'yicha jami
1 834,5**




**Nodavlat
1 791,8**



**Davlat
42,7**

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati

2018 yil yanvar-iyul uchun



Hududlar kesimida qurilish ishlari quyidagicha ifodalanadi

	<i>Jami</i>		<i>shu jumladan:</i>	
			<i>Hududiy qurilish pudrat tashkilotlari</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
Qashqadaryo viloyati	1 834554,1	100,5	247,0	109,7
tumanlar:				
G'uzor t	66 612,9	74,4		
Dehqonobod t	59 208,5	98,9		
Qamashi t	39 690,7	101,7		
Qarshi t	177 565,7	107,7	3,1	100,0
Koson t	231 541,7	100,9	119,4	120,2
Kitob t	128 830,6	113,9		
Mirishkor t	54 211,5	106,3		
Muborak t	85 742,9	72,7	18,7	86,3
Nishon t	48 356,4	100,3	1,6	65,8
Kasbi t	70 856,8	93,5	1,3	2,2 p
Chiroqchi t	140 472,3	104,0		
Shahrisabz t	58 960,3	100,1		
Yakkabog' t	100 427,2	104,6	3,2	2,4 p
Qarshi sh	493 515,6	104,7	78,8	102,4
Shahrisabz sh	78 561,0	103,4	20,9	96,5



Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1791,8 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 97,7 foizini tashkil qildi. Shu jumladan mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 42,7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 2,3 foizini tashkil qildi.

Mulkchilik shakllari (foizda)

